

O‘ZBEK HIKOYALARIDA KINOYANING IFODALANISHI

ВЫРАЖЕНИЕ ИРОНИИ В УЗБЕКСКИХ РАССКАЗАХ

THE EXPRESSION OF IRONY IN UZBEK SHORT STORIES

*E.Ibragimova, FarDU professori v.b.,
G.Muhammadjonova, FarDU talabasi.*

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o‘zbek hikoyalarida kinoya hodisasining badiiy nutqdagi ifodalanish xususiyatlari, kinoyaning badiiy tasvir vositalaridan biri sifatida muallifning voqelikka nisbatan subyektiv munosabatini yashirin tarzda ifodalashga xizmat qilishi, kinoyaning badiiy tasvir vositasi sifatida o‘rganilishi, o‘zbek tilshunosligida ushbu hodisaning leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali ifodalanishi, shuningdek, o‘zbek hikoyachiligida kinoyaning badiiy-estetik vazifalari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *kinoya, badiiy nutq, stilistika, tasviriy vositalar, hikoya janri, ekspressivlik.*

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются особенности выражения явления иронии в художественной речи узбекских рассказов. Отмечается, что ирония, как одно из средств художественной выразительности, служит для скрытого выражения субъективного отношения автора к действительности. Также анализируется изучение иронии как художественного средства, её выражение в узбекском языкознании посредством лексических, морфологических и синтаксических средств. Кроме того, рассматриваются художественно-эстетические функции иронии в узбекском рассказе.

Ключевые слова: *ирония, художественная речь, стилстика, изобразительные средства, жанр рассказа, экспрессивность.*

ABSTRACT. This article discusses the features of expressing the phenomenon of irony in the artistic speech of Uzbek short stories. It emphasizes that irony, as one of the artistic expressive means, serves to implicitly convey the author's subjective attitude toward reality. The study also examines irony as a literary device and its expression in Uzbek linguistics through lexical, morphological, and syntactic means. Furthermore, the artistic and aesthetic functions of irony in Uzbek short stories are analyzed.

Keywords: *irony, artistic speech, stylistics, expressive devices, short story genre, expressiveness.*

Badiiy adabiyot tilning eng boy va rang-barang imkoniyatlarini namoyon etadigan nutq shakli hisoblanadi. Unda voqelikni obrazli tasvirlash, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalash hamda muallifning voqea-hodisalarga munosabatini bildirish uchun turli tasviriy vositalardan foydalaniladi. Ana shunday vositalardan biri kinoyadir.

Kinoya badiiy nutqda keng qo‘llaniladigan stilistik vosita bo‘lib, u orqali muallif voqelikka nisbatan tanqidiy yoki istehzoli munosabatini yashirin tarzda ifodalaydi. Tilshunoslikda kinoya so‘z yoki iboraning o‘z ma‘nosiga zid ma‘noda qo‘llanishi orqali yuzaga keladigan stilistik hodisa sifatida talqin qilinadi¹.

Badiiy asarlarda kinoya nafaqat kulgi uyg‘otish, balki ijtimoiy tanqidni ifodalash, obraz yaratish va matnning emotsional ta‘sirini kuchaytirish vazifasini ham bajaradi². Shu sababli kinoya badiiy nutqning muhim stilistik vositalaridan biri sifatida tilshunoslikda alohida o‘rganilmoqda. Badiiy nutqning muhim xususiyatlaridan biri obrazlilikdir. Obrazlilik esa ko‘pincha til birliklarining ko‘chma ma‘noda qo‘llanishi orqali yuzaga keladi. Kinoya ham ana shunday vositalardan biri bo‘lib, unda nutq muallifi so‘z yoki iborani o‘zining asl ma‘nosiga qarama-qarshi ma‘noda qo‘llaydi³. Tilshunos olimi O.S. Axmanova kinoyani so‘zlarning aks ma‘noda qo‘llanishi orqali yuzaga keladigan stilistik vosita sifatida izohlaydi. Bunda nutq muallifi asl ma‘noga qarama-qarshi ma‘noni nazarda tutadi va shu orqali o‘z bahosini bildiradi⁴.

Kinoya jahonda tilshunosligida stilistik va pragmatik hodisa sifatida keng o‘rganilgan. G‘arb tilshunosligida kinoya ko‘pincha “ironiya” deb ataladi va u nutqda subyektiv bahoni yashirin ifodalash vositasi sifatida talqin qilinadi. Masalan, ingliz tilshunosligi tadqiqotlarida ironiya — bu so‘z yoki iboraning asl ma‘nosiga zid ma‘noda ishlatilishi orqali yuzaga keladigan stilistik effekt sifatida ko‘riladi⁵.

Fransuz tilshunosligi tadqiqotlarida kinoya ijtimoiy tanqid va satira vositasi sifatida o‘rganilgan. Tadqiqotchilar ta‘kidlaydiki, kinoya o‘quvchiga yoki tinglovchiga muallifning subyektiv fikrini bevosita emas, balki yashirin, estetik va emotsional tarzda etkazishga xizmat qiladi⁶.

Rus tilshunosligida esa kinoya leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali ifodalanadi. Shu jumladan, antifraziya (so‘zning aks ma‘noda ishlatilishi), savol yoki takroriy gaplar orqali yashirin istehzo hosil qilinadi⁷. Kinoya nafaqat badiiy matnni boyitadi, balki nutqning ekspressivligini oshirish, ijtimoiy-madaniy mazmunni berish va personaj xarakterini ochishda ham muhim vosita sifatida qaraladi. Shuningdek,

¹ Axmanova O. S. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1966. – 178-бет.

² Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent, 1992. – 67-бет.

³ Umurqulov B. Badiiy matn lingvistikasi. – Toshkent, 2010. – 54-бет.

⁴ Axmanova O. S. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1966. – 179-бет.

⁵ Attardo, Salvatore. Linguistic Theories of Humor. Berlin: Mouton de Gruyter, 1994.

⁶ Muecke, D.C. Irony and the Ironic. London: Methuen, 1970.

⁷ Kazanskaya, T.P. Irony in Russian Literature: Lexical, Morphological and Syntactic Means. – M.: Nauka, 2012.

kinoya lingvistik universallik xususiyatiga ega. Turli tillarda — ingliz, fransuz, nemis, rus va boshqa tillarda — u subyektiv bahoni yashirin ifodalash, ijtimoiy tanqid va dramatik effekt berish vositasi sifatida ishlatiladi. Shu sababli, kinoya nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiy tilshunosligida ham badiiy nutqning asosiy va ta’sirchan vositasi sifatida o‘rganiladi⁸.

O‘zbek tilshunosligida ham kinoya badiiy nutqning muhim stilistik vositasi sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar fikricha, kinoya badiiy matnning ekspressivligini oshirish, muallifning subyektiv munosabatini ifodalash va o‘quvchida estetik taassurot uyg‘otishda muhim rol o‘ynaydi⁹.

Badiiy asarda kinoya qo‘llanishi yozuvchining badiiy mahorati bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ijodkor voqelikni tasvirlash jarayonida turli stilistik vositalardan foydalanib, o‘zining g‘oyaviy niyatini o‘quvchiga yetkazadi. Kinoya esa bu jarayonda yashirin tanqid, istehzo va emotsional baho ifodalash imkonini beradi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy nutq va tasviriy vositalar masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, stilistika va badiiy nutq masalalari E. Qilichev, B. Umurqulov, H. Jamolxonov, E. Ibragimova kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida kinoya badiiy nutqda ijtimoiy tanqid, istehzo va subyektiv munosabatni ifodalovchi muhim stilistik vosita sifatida baholanadi. Bunday vosita orqali yozuvchi voqelikni bevosita emas, balki yashirin, nozik shaklda tasvirlaydi¹⁰. Tilshunos olim E. Ibragimova kinoyani bir umumiy hodisa ko‘rinishlari sifatida o‘rganishga va ularni muayyan darajada farqlashga harakat qiladi: “O‘zbek tilida salbiy subyektiv munosabat ifodalash usullari xilma-xil bo‘lib, ular bir-biridan ironik mazmun ifodalashning darajalanishi bilan, ya’ni salbiy xususiy munosabatning eng yuqori, meyordan ortiq, o‘rtacha, yuzaki (shunchaki) ifoda etilishi bilan farqlanadi. Lekin ularning barchasi zamirida salbiy xususiy munosabatlar yotadi”¹¹. Bu xususiyat ularni bir umumiy hodisa ko‘rinishlari sifatida o‘rganishni taqozo etishini ta’kidlab, bu tushunchalarni kulgi ko‘rinishining darajalanishi asosida yuqoridan quyiga tomon joylashtirilgan holatini ko‘rish mumkin: shama – luqma – ermak – ilmoq – mazax – masxara – zaharxanda.

O‘zbek badiiy adabiyotida kinoya, ayniqsa, hikoya janrida keng qo‘llaniladi. Hikoya janri voqeani qisqa va ixcham shaklda tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘lgani sababli unda stilistik vositalar, jumladan kinoya ham muhim badiiy vazifa bajaradi.

O‘zbek hikoyachiligida kinoya Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, O‘tkir Hoshimov kabi yozuvchilarning asarlarida keng uchraydi. Ushbu yozuvchilar o‘z

⁸ Grice, H.P. Logic and Conversation. In: Syntax and Semantics, Vol. 3. Academic Press, 1975.

⁹ Umurqulov B. Badiiy nutq stilistikasi. – Toshkent, 2011. – 73-bet.

¹⁰ Jamolxonov H. O‘zbek badiiy uslubi va nutq estetikasi. - Toshkent: Fan. – 217-bet.

¹¹ Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ироник мазмун ифодалаш усуллари. – Фарғона, 2005.– Б.36.

asarlarida kinoya vositasidan foydalanib jamiyatdagi ayrim salbiy hodisalarni tanqid qilgan hamda qahramonlarning xarakterini yanada jonliroq ochib berganlar.

Kinoya badiiy nutqda leksik, morfologik va sintaktik usullar orqali ifodalanadi. Leksik kinoya soʻzlarning oʻz maʼnosiga zid maʼnoda qoʻllanishi orqali yuzaga keladi. Bunda nutq muallifi ijobiy maʼnodagi soʻz yoki iborani ishlatib, aslida salbiy munosabatni ifodalaydi. Natijada kontekst orqali yashirin istehzo yoki tanqid maʼnosi yuzaga chiqadi¹². Misol sifatida Abdulla Qahhorning “Oʻgʻri” hikoyasidagi quyidagi parchani olaylik, “Bu “xudo yallaqagʻur” shunchalik qilganidan keyin bir nima berish lozim-da”(Anor.77-bet). parchada kletirilgan soʻzlar oʻzining yuzaki maʼnosiga zid tarzda ishlatilgan. Qahramon aslida norozi yoki tanqidiy kayfiyatda boʻlib, vaziyatni ijobiy ohangda tasvirlaganday gapiradi.

Leksik kinoyaning mohiyati shundaki, qahramon nutqida ishlatilgan soʻzlar asl maʼnosida emas, balki teskari, yashirin istehzo maʼnosini bildiradi. Masalan, “xudo yallaqagʻur” , “bir nima berish lozim-da” iborasi soddaligi va ijobiy ohangi bilan yuzaki koʻrinadi, ammo kontekst orqali qahramonning noroziligi va tanqidiy munosabati aniq seziladi. Shu tariqa, leksik kinoya soʻzlar va iboralarning teskari maʼnoda qoʻllanishi orqali yuzaga keladi.

Kinoya ayrim hollarda morfologik vositalar yordamida ham ifodalanadi. Bunda soʻzlarning grammatik shakllari, ayniqsa baholovchi qoʻshimchalar, kuchaytiruvchi shakllar yoki hurmat shakllari kinoyaviy maʼno hosil qilishga xizmat qiladi. Masalan: “Bizning Muhayyoxon ham aqlsizgina qiz edi, tezroq aql kirsin deb nasibasini aqlli bir bolaning nasibasiga qoʻshgan edik, oqibati koʻnglidagiday boʻlib chiqmadi”(Anor “Muhabbat”). Mazkur parchada morfologik kinoya muhim namuna sifatida koʻrinadi. Soʻzlarning grammatik shakli oʻz asl ijobiy maʼnosida ishlatilgan boʻlsa-da, kontekst orqali yashirin, istehzoli baho hosil qilinadi. “Muhayyoxon”, “aqlsizgina” soʻzlaridagi erkalash-kichraytirish qoʻshimchasi qahramonning xatti-harakati yoki aqliy holatini muloyim kulgi bilan tanqid qiladi, shu bilan birga subyektiv bahoni ifodalaydi. Shuningdek, “aqlli bir bolaning nasibasi” iborasi ijobiy morfologik shaklga ega boʻlishiga qaramay, kontekstda qahramonning natijasiz urinishini koʻrsatib, istehzoli teskari maʼno yaratadi. Bu morfologik kinoya namunasi koʻrsatadiki, badiiy nutqda grammatik jihatdan ijobiy soʻzlar yoki iboralar teskari, subyektiv baho ifodalash uchun ishlatilishi mumkin. Shu tarzda, morfologik kinoya muallifning subyektiv munosabatini yashirin shaklda ifodalash, qahramon xarakterini ochish va matnning emotsional-estetik taʼsirini oshirishga xizmat qiladi.

Kinoya baʼzan gap tuzilishi va sintaktik vositalar orqali ham yuzaga keladi. Bunday hollarda kinoyaviy maʼno butun gap yoki gaplar tizimi orqali ifodalanadi. Soʻroq gaplar, undov gaplar yoki takroriy gap konstruktsiyalari kinoya hosil qilishda muhim

¹² Mamajonov S. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 2008. – 132-6er.

rol o‘ynaydi¹³. Masalan: “Berar edi!-dedi Turobjon zaharxanda qilib, - anor olmay asal oldim!” (Abdulla Qahhor “Anor”). Mazkur parchada kinoya sintaktik vositalar yordamida ifodalangan. Jumladan, dialog shaklida kelgan gaplar orqali qahramonning ichki munosabati va istehzoli kayfiyati ochib beriladi. “Berar edi!” gapining undov ohangida qo‘llanishi sintaktik kinoyani yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Gap tuzilishidan ko‘rinib turibdiki, qahramon aslida anor berilmaganidan norozi bo‘lsa-da, buni ochiq aytmaydi. Aksincha, “berar edi” shaklida kinoyaviy ohangda gapirib, vaziyatga nisbatan istehzoli munosabat bildiradi. Keyingi jumlada esa “anor olmay asal oldim” degan ifoda qo‘llangan. Bu yerda ham kinoyaviy ma’no gapning sintaktik tuzilishi orqali kuchaytirilgan. Qahramon aslida anor olmoqchi bo‘lgani, biroq moddiy tomonlama bunga imkoniyat bo‘lmaganini kinoya orqali bildiradi. Shunday qilib, gapning tuzilishi, undov ohangi va dialog shakli qahramonning ichki hissiy holatini hamda vaziyatga nisbatan istehzoli munosabatini ifodalashga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kinoya o‘zbek hikoyalarida keng qo‘llaniladigan muhim badiiy tasvir vositalaridan biridir. U orqali yozuvchi voqelikni obrazli tasvirlash, qahramonlarning xarakterini ochib berish va ijtimoiy tanqidni ifodalashga erishadi.

Shuningdek, kinoya leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali ifodalanishi mumkin. Har bir usul badiiy matnning ekspressivligini oshirish hamda muallifning subyektiv munosabatini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli kinoya o‘zbek badiiy nutqining muhim stilistik vositalaridan biri sifatida alohida ilmiy tadqiq etishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Attardo, S. Linguistic Theories of Humor. - Berlin: Mouton de Gruyter. -1994.
2. Axmanova, O.S. Stilistika: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Sharq. - 2003.
3. Grice, H.P. Logic and Conversation. In: Syntax and Semantics, Vol. Academic Press.- 1975.
4. Jamolxonov, H. O‘zbek badiiy uslubi va nutq estetikasi.- Toshkent: Fan.- 2007.
5. Kazanskaya, T.P. Irony in Russian Literature: Lexical, Morphological and Syntactic Means. – M.: Nauka, - 2012.
6. Mamajonov, S. Badiiy til va tasviriy vositalar. - Toshkent: Sharq, - 2008.
7. Qilichev, E. Badiiy adabiyot tili va tasviriy vositalar. - Toshkent: Fan. – 2008.
8. Solihova, N.Q. Enantiosemiya va kinoya fenomeni. - Toshkent: Akademiya, - 2008.
9. Umurqulov, B. Badiiy nutq va obrazlilik. - Toshkent: Fan. -2010.
10. Muecke, D.C. Irony and the Ironic. - London: Methuen, - 1970.
11. Abdulla Qahhor. “Anor” hikoyalar to‘plami. – Toshkent. - 2016.

¹³ Kazanskaya T.P., Ironiya i stilisticheskie metody, - Moskva, 2012.